

**Xabibullayeva Nafisa Sherali qizi**  
Namangan davlat universiteti talabasi

---

## **XORIJIY TILLARNI O‘RGANISHDA VA O‘RGATISHDA PSIXOLINGVISTIK METODLAR TAHLILI**

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada psixolingvistika sohasi hamda fanning o‘z ichiga olgan boshqa yo‘nalishlari haqidagi umumiy tushunchalar hamda zamonaviy psixolingvistik metodlar tahlili haqida qarashlar aks etgan. Xorijiy tillarni o‘rganishda psixolingvistik ta’limiy yondashuvlarga alohida urg‘u berilgan. Yangi psixolingvistik usullar mohiyati germeneytik, qiyosiy tahlillar yordamida ochib beriladi. Tadqiqot natijasi xorijiy tillarni o‘rganuvchilarning muayyan turlari uchun konkret psixolingvistik metodlarning mavjudligi va ulardan maqsadli foydalanishning til o‘rganishda alohida ahamiyatli ekanligini ko‘rsatadi.

**Kalit so‘zlar:** Tilshunoslik, psixolingvistika, til, nutq, tilni idrok etish, fikr, his-tuyg‘u, psixolingvistik yondashuv, muloqot.

**Абстрактный:** В данной статье отражены общие концепции области психолингвистики и других областей науки а также анализ современных психолингвистических методов. Особое внимание уделяется психолингвистическим образовательным подходом в изучении иностранного языка. Результат исследования показывает, что наличие специфических психолингвистических методов и их целенаправленное использование в изучении языка имеют особое значение для определенных типов изучающих иностранный язык.

**Ключевые слова:** Лингвистика, психолингвистика, язык, речь, языковое восприятие, мышление, эмоция, психолингвистический подход, общение.

**Abstract.** This article reflects the general concepts of psycholinguistics and other areas of the science, as well as, the analysis of modern psycholinguistic methods. Special emphasis is placed on psycholinguistic educational approaches in foreign language learning. The essence of new psycholinguistic methods is revealed with the hermeneutic, comparative analysis. The result of the study shows that concrete psycholinguistic methods and their purposeful use in language learning are particularly important for certain types of foreign language learners.

**Keywords:** linguistics, psycholinguistics, language, speech, language perception, concept, emotion, psycholinguistic approach, communication.

---

### KIRISH

Global taraqqiyot zamonida xorijiy tillarni o‘rganish shaxs va jamiyat uchun eng dolzarb masalalardan biri bo‘lib qolmoqda. Chet tilini o‘rganish va o‘rgatish jarayoni bevosita insonning ongi va nutqi bilan bog‘liq. Shunday ekan, mazkur jarayonlarda psixolingvistik yondashuvlardan xabardor bo‘lish, zamonaviy psixolingvistik usullarni qo‘llash nafaqat pedagog uchun, balki o‘rganuvchi uchun ham manfaatli bo‘ladi, tadqiqotdagi yangi kashfiyotlar, ya‘ni ongga ta‘sir etish usullari darslarning oson va sifatli tarzda olib borilishiga xizmat qiladi.

---

### ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYASI

Ma'lumki, psixolingvistika – yosh fan, u nutqning hosil bo'lishi, shuningdek, nutqni idrok etish va shakllantirish jarayonlarini o'rganuvchi sohadir. Psixolingvistika psixologiya va tilshunoslik fanlari chorrahasida shakllangan tilshunoslikning yangi yo'nalishi sanaladi. "Psixolingvistika" termini o'tgan asrning 60-yillarida amerikalik olimlar tomonidan amaliyotga kiritilgan. Xususan, O'zbekistonda mazkur soha bo'yicha qator ishlar amalga oshirilgan, biroq haqiqiy ma'nodagi psixolingvistik tadqiqotlar endigina boshlanmoqda [O. Madvaliyev // "Psixolingvistika", 2022, - B.23]. Inson ongi tili bilan uzviy aloqador hisoblanadi. Kishi fikrlarini til orqali moddiylashtirar ekan, har bir so'z uning psixologiyasiga turlicha ta'sir qiladi, aynan shuning uchun psixologiyani tilshunoslikdan ajratib bo'lmaydi. Bu ikki soha uyg'unligida ilmiy tadqiqot olib borilsa, har ikki soha uchun ham manfaatli bo'ladi. Psixolingvistika bugungi kunda ko'plab savollarga, ayniqsa quyidagi ikki savolga javob beradi:

1. Tildan foydalanishimiz uchun qanday til bilimi kerak?
2. Tildan foydalanishda qanday kognitiv jarayonlar sodir bo'ladi?

Psixolingvistika fani jahon tilshunosligida ham, o'zbek tilshunosligida ham tez sur'atlarda rivojlanmoqda. Tilshunos olim Chaer qayd etganidek psixolingvistika o'z ichida bir nechta yo'nalishlarga ajraladi: [Chaer // "Psikolinguistik", Kajian Teori, 2015]

- Nazariy psixolingvistika. U insonning aqliy faoliyati bilan bog'liq til nazariyalariga, tildagi fonetika, diksiya, sintaksis dizayni, nutq va intonatsiya kabi jarayonlarga e'tibor qaratadi.
- Rivojlanish psixolingvistikasi. Bu tilni o'zlashtirish bilan bog'liq, u fonologik, semantik va sintaktik o'zlashtirish, jarayonni bosqichma-bosqich va yaxlit holda o'rganadi.
- Ijtimoiy psixolingvistika. Tilning ijtimoiy jihatlari, jumladan, ijtimoiy o'ziga xoslik bilan bog'liq soha.
- Pedagogik psixolingvistika. U maktabdagi rasmiy ta'limning umumiy jihatlari, jumladan, o'qish mahoratini o'rgatishda tilning rolini, fikr va his-tuyg'ularni ifodalashda til qobiliyatini yaxshilashni muhokama qiladi.
- Neyropsixolingvistika. Til, nutq yaratish va inson miyasi o'rtasidagi munosabatlarga qaratilgan.
- Eksperimental psixolingvistika. Barcha tillarda sinab ko'rilgan va tadqiq qilingan til faoliyatini o'rganadi.

Xorijiy tillarni o'rganish muammolari psixolingvistika shug'ullanadigan amaliy masalalardan hisoblanadi. Xarras va Andika psixolingvistika tamoyillari asosida ishlab chiqilgan til o'rgatish usullarining uch turini qayd etadilar: tabiiy usul, umumiy-jismoniy javob usuli hamda taklifopediya usuli. Xorijiy tillarni o'qitishning xorijiy usullari birinchi navbatda o'rganishga bioxeioristik yondashuv asosida shakllangan. Metodikaning psixologik aspekti chet tilini o'rganish jarayonida nihoyatda ahamiyatlidir. Psixolingvistik aspektlarning zamonaviy metodlaridan biri savol-javob mashqlari hisoblanadi va ular ko'plab ko'nikmalarni shakllantirish uchun mos keladi. Bu ko'p funksiyali mashqdir, chunki u materialni taqdim etish va tushunish bosqichida (muammoli savollar), o'qitish uchun va nazorat vazifasi sifatida foydalanilishi mumkin. Bir tillilikdan tashqari, savol-javob mashqlarining katta afzalligi ularning muloqotning psixolingvistik tabiatiga muvofiqligi, o'zaro ta'sirning ushbu shaklining tabiiyligi va tanishligi, topshiriqning qiyinligini baholash imkoniyati va tashkil etishning qulayligidir. Savol-javob mashqlaridan foydalanishning tipik uslubiy kamchiliklariga savolning rasmiylashtirilganligi, umumiy savolga javob berishda o'quvchilarning aqliy faollining pastligi, dars davomida faqat savol-javob ish shaklidan foydalanish kiradi. [Белянин П. "Психоллингвистика". Учебник, 2003. – С.63-67] Xorijiy tilni o'rganishning psixologik o'ziga xosligi chet tilidagi matnni idrok qilish, chet tilidagi so'zlarni xotirada saqlash bilan o'rganuvchining chet tilidagi tafakkuri kengayib borishiga xizmat qiladi. Xorijiy

tilda o'rganuvchining chet tilida mustaqil, erkin fikrlash doirasini kengaytirish ular bilan suhbatlarni to'g'ri tashkil eta olish bilan bog'liq. Chet tilini o'zlashtirilmayotgan kishilarda o'z tili grammatikasi yoki leksikologiyasini to'g'ri idrok qila olmaganlik holatlari ko'p kuzatiladi. Tilni muvaffaqiyatli o'zlashtirish jarayonida ma'lum bir psixolingvistik bosqichlar borki, ular o'rganuvchi diqqatini jalb qiladi. O'qituvchi o'rganuvchi diqqatini dars materiallariga to'g'ri yo'naltira olishi, buning uchun vizual yordamni aniq vaqtda qo'llay olishi kerak, o'z vaqtida qo'llangan ko'rgazmali metodlar o'zlashtiruvchi ongiga tezroq ta'sir qiladi. Lekin noo'rin qo'llangan ko'rgazmalar til o'rganishda salbiy ta'sirga ega bo'lishi mumkin.

### TAHLIL VA NATIJALAR

Har qanday til ta'limi lisoniy birliklarning kodlanishi va dekodlanishi ko'nikmalariga qaratilar ekan, mazkur jarayonni to'g'ri anglash va o'quvchilarning ko'rsatkichlarini mos ravishda baholash, shu orqali dars samaradorligini ta'minlash uchun psixolingvistik bilim zarur bo'ladi. Ayniqsa, chet tilida gapirishga o'rganish va umuman og'zaki til ko'nikmalarini shakllantirish tilni o'rgatishda eng qiyin vazifalardan sanaladi. Sababi bu insonning o'zga tilda fikr, his-tuyg'ularini mustaqil tarzda ifodalashi bilan bog'liq. Ongli ravishda nutq yaratish va til shakllarini tahlil qilish til o'rganishning dastlabki bosqichlariga xosdir. Chet tillarini o'rgatish jarayonida o'quvchilarning nutqiy ko'nikmasini o'stirish borasida, faqatgina tilning yuza tomoni bilan chegaralanmasdan, psixolingvistik jihatlariga ham e'tibor berish maqsadga muvofiqdir. Psixolingvistlarning fikricha, yangi o'rganib olingan tilni o'zlashtirib olishning o'zi kamlik qiladi. Kerakli til bilimlari bilan birgalikda, yangi tilni o'z ongida qabul qilish kerak, bunda yangi til muhitini inson o'z atrofida yaratib olishi, ayrim vaziyatlarda yangi til bilan o'ylashi, fikr yuritishi, har kungi hayoti davomida tilga faqatgina dars davomida emas, erkin vaqtlarda ham murojaat etishi natijasida inson yangi til bilan fikrlash ko'nikmasini asta-sekinlik bilan rivojlantiradi. Insonning gapirish ko'nikmasi unda genetik jihatdan shakllangan bo'ladi. Shuning uchun tilni ko'p qismli audiolar yordamida o'rganishdan ko'ra gapirish ko'nikmasini bevosita shakllantirib borish manfaatlidir. Til o'rganish jarayonida o'quvchi biligv darajasiga ega bo'ladi. Ba'zi bir o'quvchilarda esa diglossiya hodisasini kuzatamiz. Ular maktab hududida adabiy tilda gaplashishsa, oila yoki do'stlar davrasida tilning boshqa bir subkodida muloqot qilishadi. Bunday psixologik jarayonda aloqaga kirishgan tillar qoidalari o'rtasidagi mutanosiblik - adekvatlik buziladi, ya'ni o'zga tilni o'rganayotgan o'quvchi odat tusiga kirgan ona tilining qoida, sistemasidan chiqib keta olmaydi, uni tark qilolmaydi. U o'z fikrini birinchi navbatda o'z tilida shakllantirib, so'ngra ona tiliga teng keladigan vositalarni o'zga tildan topishga harakat qiladi. Demak, bunda bilish jarayoni ona tili asosida sodir bo'ladi. [ O'quvchilarning og'zaki nutqini rivojlantirishda psixolingvistikning o'rni // Allaqulova G, 2020, – B.4] Kerakli darajada bilim va ko'nikma sodir bo'lganda, o'rganuvchi shu til muhitiga tushib, o'sha tilda to'g'ridan to'g'ri fikrlay olish darajasiga yetadi, hatto ona tilidan muntazam foydalanmay qo'yganda, o'zga til uning asosiy aloqa-aralashuv vositasiga aylansa, kishi ona tilini astalik bilan unutib boradi, til mansub bo'lgan millat mentalitetiga kirib boradi. Yetti yoshdan kichik bolalarga chet tilini o'rgatish ular ongida ikki til qarama-qarshiligini keltirib chiqarib, bolalar psixologiyasiga salbiy ta'sir ko'rsatgani tadqiqot jarayonida aniqlangan. O'rganuvchining qobiliyatlarini yaxshiroq tushunish jarayonida har bir o'qituvchi o'zining farqlovchi xususiyatlari, individualligi bilan nafaqat balog'at yoshida, balki bolaligida ham tanishishi kerak.

### XULOSA VA TAKLIFLAR

Ko'rinadiki, psixolingvistika insonning tilni qanday egallashini, og'zaki va yozma tilni ishlab chiqarishi va idrok etishini tushuntiruvchi ko'plab metodlarni taqdim etadi. Mazkur metodlar til o'qitish sohasida muhimdir, ulardan o'rinli foydalanish maxsus mahorat talab

qiladi. Ba'zi ekspertlar ulardan til o'qitish usullarini ishlab chiqishda asosiy amaliyotlar sifatida foydalanadilar. Bu mulohazalar ushbu metodlar chet tilini o'rganish va o'qitish jarayonida ahamiyatli ekanini ko'rsatadi. Mazkur tadqiqot o'z maqsadiga ko'ra yuqoridagi savollarga javob berdi. Avval aytganimizdek, bu maqolada chet tillari ta'limi masalasiga umumiy bildirilgan fikrlar soni salmoqli bo'ldi. Ushbu masalaga yana-da xususiyoq va aniqroq yondashish va muayyan uskunalar yordamida mavzuga oid kengroq tadqiqotlar olib borish kelajakdagi tadqiqot ishlari uchun mavzu bo'lsa, bu borada esa yuqoridagi ma'lumot va tushunchalar foydali bo'lsa, tadqiqotchi uchun ham manfaatli ish bo'ladi.

#### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:**

1. Tell journal, Volume 6, Number 1. ISSN:2334-8927, 2019. – 34-32p.
2. Chaer, A. Psikolinguistik: Kajian Teori. Jakarta: PT Rineka Cipta, 2015. – 53p.
3. Alduais, A.M.S. Integration of Language Learning Theories and Aids Used for Language Teaching and Learning. A Psycholinguistic Perspective, Journal of Studies in Education, Vol 2, No4. – 2012. – 76-81p.
4. Field, J. Psycholinguistics. The Key Concept. London: Routledge, 2004. – 163p.
5. Harmer, J. The practice of English Language Teaching. Third Edition. London: Longman, 2001. – 34p.
6. Macaro E. Continuum Companion to Second Language Acquisition. London: Continuum, 2003. – 51p.
7. Matlin, M.M. Cognition. New York: Ted Buchholz, 1994. – 198p.
8. Allaqulova G. "O'quvchilarning og'zaki nutqini rivojlantirishda psixolingvistika ning o'rni". – Toshkent. 2020. – 4b.
9. Белянин П. "Психоллингвистика". Учебник, 2003. – С, 63-67.
10. Uluqov N. "Tilshunoslik nazariyasi", o'quv qo'llanma. - T.: 2019. - 53-54-b.